QASHQADARYO VILOYATI MIRISHKOR TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 17-oktabr | 305-4-63-Q/24 | Mirishkor tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2025-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom da belgilangan vazifalar ijrosi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Ijtimoiy muhofazaga muhtojlarning soni o‘zgarishiga qarab, ular uchun belgilanadigan ish o‘rinlarining eng kam soni va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiya tarkibi **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining 7 foizi miqdorida, bu **97 kishini** *(2-ilovaga muvofiq)* tashkil etadi. Shu jumladan:

-o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 20 foiz (20 kishi);

-umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 61 foiz (60 kishi);

-safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 3 foiz (3 kishi);

-nogironlar uchun 2 foiz (2 kishi);

-pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 8 foiz (7 kishi);

-jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar, 4 foiz (4 kishi);

-odam savdosi qurbonlari uchun 1 foiz (1 kishi)

-oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlangan shaxslar 1 foiz (1 kishi)

3. Ish beruvchilar ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to’siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiyena normalariga va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasin.

Bunda:

nogironlar uchun salomatligi va mehnat faoliyatiga nisbatan qo‘yiladigan belgilangan talablar hisobga olingan holda mehnat vazifasini to‘siqsiz bajarish imkonini beruvchi ish joylari;

yoshlar uchun, ular umumta’lim muassasalarini tamomlaganlaridan keyin ularning kasb-hunar tayyorgarligiga muvofiq keluvchi ish joylari;

14 yoshga to‘lmagan bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz onalarga hamda ko‘p bolali ota-onalarga bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bajarishni birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi, o‘zgaruvchan jadvalli ish joylari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qarori bilan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun ularning kasb tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari.

4. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 *(yigirma besh)* foizi miqdorida ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilishi va tayyorgarligini ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qilinsin.

5. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot *(ish beruvchi)* tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Mirishkor tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qilinsin.

6. Ushbu qarorda nogironlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonidan ortiqcha nogironlar uchun ish o‘rinlari tashkil etgan tashkilotlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozlar belgilanadi.

7. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Mirishkor tuman hokimining qarorini bajarmagan korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilangan.

8. Barcha korxona, tashkilot va muassasalar har oyda hisobot oydan keyingi oyning 5-kunigacha Mirishkor tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga 3-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida ma’lumot taqdim etsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi *(AV ro‘yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019-yil)* buyrug‘iga asosan, subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olgan holda, “Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sonidan ortiq miqdorida ishga qabul qilgan korxona va tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oyi davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lash tavsiya etilsin.

9. Mirishkor tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (M.Azizov)ga:

bir hafta muddatda, mazkur qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazilishini ta’minlasin.

10. Mirishkor tuman hokimining 2023-yil 17-oktabrdagi 193-4-63-Q/23-sonli qarori 2024-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Sariqov zimmasiga yuklatilsin.

12. Mazkur qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **F.G`ulomov**

Mirishkor tuman hokimining
2024-yil 17-oktabrdagi
305-4-63-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Mirishkor tumani bo‘yicha 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida
M A ’ L U M O T

№	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj , ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro‘yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	Shu jumladan							
				14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota onalar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Umumiy o‘rta maxsus , kasb-hunar ta’limi muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Safarbarlik chaqiruv zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari	Odam savdosi qurbonlari uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar
1	Agrobank Mirishkor filiali	**44**	**1**	1	0	0	0	0	0	0	0
2	Mirishkor tuman tibbiyot birlashmasi	**590**	**12**	3	2	1	1	3	1	1	1

3	Mirishkor tuman DSENM	**97**	**2**	0	1	0	0	0	1	0	0
4	Mirishkor tuman YFU korxonasi	**35**	**1**	0	0	0	0	1	0	0	0
5	Obodonlashtirish boshqarmasi	**113**	**6**	1	4	0	0	0	1	0	0
6	Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	**40**	**1**	0	0	1	0	0	0	0	0
7	1-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**78**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
8	38-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktab	**68**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
9	Mirishkor tuman "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi	**108**	**4**	1	1	0	0	1	1	0	0
10	2-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**96**	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0
11	4-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**47**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
12	5-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**86**	**2**	0	1	0	0	1	0	0	0
13	6-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**62**	**2**	0	1	0	0	1	0	0	0
14	21-ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**26**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0

15	Jeynov shifoxonasi	**113**	**3**	1	2	0	0	0	0	0	0
16	7-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**83**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
17	8-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**91**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
18	9-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**67**	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0
19	10-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**53**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
20	11-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**57**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
21	12-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**51**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
22	19-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**39**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
23	20-ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**44**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
24	27-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**25**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
25	3-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**56**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
26	39-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktab	**31**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0

27	13-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**67**	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0
28	14-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**56**	**2**	0	1	1	0	0	0	0	0
29	15-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**34**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
30	36-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**58**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
31	G‘.G‘ulom qorako‘lchilik MCHJ	**38**	**1**	1	0	0	0	0	0	0	0
32	16-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**44**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
33	17-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**55**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
34	18-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**51**	**2**	0	2	0	0	0	0	0	0
35	Chandir shifoxonasi	**48**	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0
36	31-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**61**	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0
37	32-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**54**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
38	33-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**50**	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0
39	34-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**57**	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0

40	35-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**43**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
41	O‘zbekiston qorako‘lchilik MCHJ	**58**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
42	Mirishkor tuman 2-sonli markaziy shifoxonasi	**178**	**2**	0	1	0	1	0	0	0	0
43	22-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**63**	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0
44	23-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**69**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
45	24-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**72**	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0
46	25-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**36**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
47	37-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**53**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
48	28-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**72**	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0
49	26-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**57**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
50	29-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**31**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
51	30-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**37**	**1**	1	0	0	0	0	0	0	0

52	19-sonli musiqa va san’at maktabi	**28**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
53	3-sonli musiqa va san’at maktabi	**34**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
54	21-sonli musiqa va san’at maktabi	**42**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
55	41-sonli maktab	**33**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
56	Madaniyat bo‘limi	**68**	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0
57	43-sonli maktab	**36**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
58	40-sonli maktab	**34**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
59	42-sonli maktab	**32**	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0
	Jami:	**3949**	**97**	**20**	**60**	**3**	**2**	**7**	**4**	**1**	**1**